



## ANDIJON VILOYATI MARHAMAT TUMANI HOKIMINING QARORI

2026-yil 20-iyun

167-1-24-Q/26

Marhamat tumani hokimligi

### **Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda yer uchastkasidan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga mos bo‘lgan yengil konstruksiyali obyektlarini joylashtirish (qurish)ni nazarda tutuvchi ichki xo‘jalik yer tuzish loyihasini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 13-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari unumdorligini oshirish, tarmoqqa investitsiyalar jalb qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-18-son Farmoni hamda 2025-yil 31-oktabrdagi “Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-322-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-sentabrdagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 594-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 21<sup>1</sup>-moddalariga asosan

### **QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2025-yil 18-sentabrdagi 594-son qarori 2-bandiga muvofiq:

yengil konstruksiyali qurilmalar va vaqtincha qurilmalar joylashtirishni (qurishni) nazarda tutuvchi ichki xo‘jalik yer tuzish loyihalari tumanlar (shaharlar) hokimlari tomonidan tasdiqlanishi;

obyektlar joylashtirilgan (qurilgan) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar alohida yer uchastkasiga bo‘linmasligi, joylashtirilgan (qurilgan) obyektlarni alohida sotishga ruxsat etilmasligi;

chorvachilik yoʻnalishlarida ijaraga berilgan qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan sugʻorilmaydigan yerlarda ichki xoʻjalik yer tuzish loyihasiga muvofiq 1 gektardan koʻp boʻlmagan, biroq ijaraga berilgan kontur maydonining bir foizidan oshmagan qismida qishloq xoʻjaligiga xizmat koʻrsatuvchi obyektlarni (chorva mollarini parvarishlash va saqlash, yengil konstruksiyali muzlatkichli omborxonalar, saralash va qadoqlash joylari, suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalari qurilmalari va hovuzlari, transformator stansiyalari, muqobil energiya inshootlari, dala shiyponi, texnika parki hamda foydalanish maqsadlari boʻyicha kapital qurilish obyektlarining klassifikatorida nazarda tutilgan boshqa obyektlar) joylashtirishga ruxsat etilganligi;

chorvachilikdan boshqa yoʻnalishlarda ijaraga berilgan yerlarda yer uchastkasidan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga mos boʻlgan obyektlarni (yengil konstruksiyali issiqxonalar va muzlatkichli omborxonalar, saralash va qadoqlash joylari, suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalari qurilmalari va hovuzlari, transformator stansiyalari, muqobil energiya inshootlari, dala shiyponi, texnika parki hamda foydalanish maqsadlari boʻyicha kapital qurilish obyektlarining klassifikatorida nazarda tutilgan boshqa obyektlar) joylashtirishga (qurishga) yoʻl qoʻyiladigan yer maydoni 20 sotixdan, biroq ijaraga berilgan kontur maydonining bir foizidan oshmasligi kerakligi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. "Oʻzdavyerloyiha" DILI "Andvilyerloyiha" boʻlinmasi tomonidan Andijon viloyati Marxamat tumani "Markaziy" mahallasi hududida faoliyat yuritayotgan "BILIMJAN AGRO" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATning 805-konturidagi 0,20 gektar qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerga (ekin yerlar) yirik va mayda shoxli qoramollarni saqlash uchun yengil konstruksiyali bino, suv rezervuari va ozuqa saqlash omborxonalarini qurish obyektlarni joylashtirish boʻyicha ishlab chiqilgan ichki yer tuzish loyihasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. "BILIMJAN AGRO" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT rahbariga:

qishloq xoʻjaligi yer turidan qishloq xoʻjaligiga xizmat koʻrsatuvchi yer turiga oʻzgartirilgan jami 0,20 gektar yer uchastkasi uchun qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiliklarining oʻrnini qoplash maqsadida "Oʻzdavyerloyiha" DILI "Andvilyerloyiha" boʻlinmasi tomonidan hisoblangan 124,719,616.00 (bir yuz yigirma toʻrt million yetti yuz oʻn toʻqqiz ming olti yuz oʻn olti soʻm) miqdordagi kompensatsiya toʻlovini oʻn yil davomida har yili teng ulushlarda boʻlib-boʻlib Respublika budjetiga toʻlab berish;

uch oy muddatda ruxsatnoma olingan yirik va mayda shoxli qoramollarni saqlash uchun yengil konstruksiyali bino, suv rezervuari va ozuqa saqlash omborxonalarini qurish obyektlarni joylashtirish (oʻrnatish) davomida chegaradosh yer uchastkalari egalari, foydalanuvchilari, ijarachilari va mulkdorlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzmasdan, amaldagi qonunchilik hujjatlariga, sanitariya-gigiyena,

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, yong'in xavfsizligi talablariga qat'iy amal qilgan holda qurib foydalanishga kiritish.

4. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limiga "BILIMJAN AGRO" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATga ruxsat berilayotgan obyektlarni joylashtirish (o'rnatish)ni belgilangan muddatda, qurilish normalariga asoslangan holda yakunlanishi ustidan nazorat olib borish vazifalari topshirilsin.

5. Davlat kadastrlari palatasi Marxamat tumani filiali "BILIMJAN AGRO" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATga nobudgarchilik to'lovlari to'liq qoplangandan so'ng mazkur yer tuzish loyihasiga muvofiq yerdan foydalanuvchining kadastr hujjatlariga va tuman yer hisobotlariga tegishli o'zgartirishlarni kiritsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Marhamat tumani  
hokimi**



**I.Umrzaqov**

Marhamat tumani hokimining  
2026-yil 20-iyundagi  
167-1-24-Q/26-son qaroriga  
1-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi**  
**“O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti**

“O‘zdavyerloyiha” DILI Andvilyerloyiha bo‘limasi

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda yer uchastkasidan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga mos bo‘lgan obyektlarni joylashtirishni (qurishni) nazarda tutuvchi ichki xo‘jalik yer tuzish loyihasi


**HUJJATLARI**

**Yer uchastkasi manzili: Andijon viloyati Marxamat tumani “Markaziy” mahallasi**

Andijon viloyati  
2026-yil

**Loyihaning ko'rsatgichlari:**

<b>Kadastr raqami</b>	17:08:000004125
<b>Umumiy yer maydoni (ga)</b>	3.9999
<b>Qurilish turi</b>	Yengil konstruksiyali qurilmalar
<b>Nobudgarchilik miqdori</b>	124,719,616.00 so'm
<b>Hudud nomi</b>	Andijon viloyati
<b>Tuman nomi</b>	Marxamat tumani
<b>Kontur(lar) raqami</b>	805
<b>Yer uchastkasidan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turi nomi</b>	Qoramolchilik
<b>Joylashtirish (qurish) so'ralayotgan obykti nomi</b>	yirik va mayda shoxli qoramollarni saqlash uchun yengil konstruksiyali bino, suv rezervuari va ozuqa saqlash omborxonalarini qurish
<b>Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'orilmaydigan yerlarda ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga mos bo'lgan obyektlarni joylashtirish (qurish) mumkin bo'lgan yer maydoni (ga)</b>	0.2000
<b>Joylashtirilayotgan obyektning koordinatalari (WGS 84 tizimida)</b>	



Masshtab 1:10 000



a) Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda xo‘jalik yurituvchi subyekt yer uchastkasida joylashgan infratuzilma obyektlari:

T/R	Tarmoqlar nomi	Minimal masofa, m	Muhofaza zonasi, m	Izoh
1	Elektr uzatish liniyalari (0.4–10 kV)	mavjud emas	mavjud emas	Kuchlanishga qarab belgilanadi
2	Elektr uzatish liniyalari (35–110 kV)	mavjud emas	mavjud emas	Yuqori kuchlanishda oshadi
3	Gaz quvurlari (past bosim)	mavjud emas	mavjud emas	Aholi punktlarida
4	Gaz quvurlari (o‘rta/yuqori bosim)	mavjud emas	mavjud emas	Bosim darajasiga bog‘liq
5	Suv ta‘minoti quvurlari	mavjud emas	mavjud emas	Diametrga qarab
6	Kanalizatsiya tarmoqlari	mavjud emas	mavjud emas	Sanitariya talablariga ko‘ra
7	Issiqlik tarmoqlari (trassalar)	mavjud emas	mavjud emas	Yer osti/yuzasi turiga bog‘liq
8	Aloqa (telekommunikatsiya) liniyalari	mavjud emas	mavjud emas	Kabel yoki optik tolali
9	Neft mahsulotlari quvurlari	mavjud emas	mavjud emas	Yuqori xavfli obyekt
10	Temir yo‘l liniyalari	mavjud emas	mavjud emas	Shovqin va xavfsizlik zonasi
11	Avtomobil yo‘llari	mavjud emas	mavjud emas	Yo‘l toifasiga bog‘liq
12	Boshqa obyektlar	mavjud emas	mavjud emas	

**Muhim eslatmalar**

Masofalar loyiha hujjatlari, shaharsozlik reglamentlari va texnik shartlarga muvofiq aniqlashtiriladi.

**Muhofaza zonalarida kapital qurilish ko‘pincha taqiqlanadi yoki cheklanadi.**

Aniqlik uchun quyidagi tashkilotlardan ma‘lumot olinadi:

- Elektr tarmoqlari korxonalari
- Gaz ta‘minoti tashkilotlari
- Suv va kanalizatsiya xizmatlari
- Telekom operatorlar

b) Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda xo‘jalik yurituvchi subyekt yer uchastkasiga chegaradosh yerdan foydalanuvchi va ijarachilar:

A dan B gacha Ichki ariq B dan D gacha Ichki ariq D dan E gacha Dala yolli E dan A gacha Dala yolli

*Izoh: Chegaradosh yerdan foydalanuvchi aniqlanmagan bo‘lsa, unda loyiha raqami qo‘yiladi*

v) Yer uchastkasining 15x20 sm (1205x1795 piksel) fotosurati:



g) Yer uchastkasining Google kosmik fotosurati.




Ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga mos bo'lgan obyektlarni joylashtirish mumkin bo'lgan yer uchastkasining kontur(lar) bo'yicha  
**QAYDNOMASI**

T/r	Yo'nalishi	Yer uchastkasidan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turi	Kontur raqami	Umumiy maydon (ga)	Jami ekin yerlari	Sug'oriladigan	Shartli sug'oriladigan	Lalmi	Bog'lar va uzumzorlar	Pichanzor va yaylovlar	Jami qishloq xo'jaligi yerlari	Suv ostidagi yerlari	Bo'z yerlari va xo'jalik xaydab o'tish joylari	Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlari	Obyektlarni joylashtirish mumkin bo'lgan yer maydoni
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
1	Fermer xo'jaligi	Qoramolchilik	805	4.0000	4.0000	4.0000	0	0		0	4.0000	0		0	0.2000
		<b>Jami</b>		<b>4.0000</b>	<b>4.0000</b>	<b>4.0000</b>	<b>0</b>	<b>0</b>		<b>0</b>	<b>4.0000</b>	<b>0</b>		<b>0</b>	<b>0.2000</b>

**QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda yer uchastkasidan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga mos bo'lgan yengil konstruksiyali obyektlarini joylashtirish (qurish)ni nazarda tutuvchi ichki xo'jalik yer tuzish loyihasi**

**XULOSA**

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanuvchi yuridik shaxsning nomi:	"BILIMJAN AGRO" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
STIR:	310917617
Faoliyat turi va yo'nalishi:	Mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat
Hudud nomi:	Andijon viloyati
Tuman nomi:	Marxamat tumani
Kontur(lar) raqami:	805
Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'orilmaydigan yerlar turi va maydoni:	-
Yer uchastkasidan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga mos bo'lgan obyektini joylashtirishga (qurish) mumkin bo'lgan maydon (ga):	0.2000
Qurilish turi:	Yengil konstruksiyali qurilmalar
Nobudgarchilik miqdori (so'm):	124,719,616.00
Yer uchastkasidan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga mos bo'lgan obyektini joylashtirishga (qurishga) ruxsat etilgan hududning koordinatalari (WGS 84 tizimida):	
Yer uchastkasidan ruxsat etilgan foydalanish turlarining klassifikatori bo'yicha qishloq xo'jaligida foydalanish turi(lari) va kodi(lari):	042010020100 - Qoramolchilik
Foydalanish maqsadlari bo'yicha kapital qurilish obyektlarining klassifikatoriga muvofiq joylashtirish (qurishga) ruxsat etilayotgan obyekt(lar) turi(lari) va kodi(lari):	1.2 - Chorvachilik yo'nalishida foydalanish uchun mo'ljallangan obyektlar
<b>XULOSA:</b>	
Kelishuv natijasi:	Rozilik berildi
Xulosa raqami:	IYT-15607/3
Xulosa berilgan sana:	2026-yil 19-iyun

**O'zbekiston Respublikasi**  
**Qishloq xo'jaligi vazirligi**

